

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**NARZIYEVA SHAXNOZA RUSTAMJON QIZI**

**DEVIANT XULQ-ATVORLI O‘SMIRLAR IJTIMOIYLASHUVINING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
Доктора философии (PhD) по психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
psychological sciences**

**Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi**

Deviant xulq-atvorli o‘smirlar ijtimoiylashuvining psixologik  
xususiyatlari.....3

**Нарзиева Шахноза Рустамжон қизи**

Психологические особенности социализации подростков с девиантным  
поведением.....25

**Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi**

Psychological features of the socialization of adolescents with deviant behavior....47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....51

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**NARZIYEVA SHAXNOZA RUSTAMJON QIZI**

**DEVIANT XULQ-ATVORLI O‘SMIRLAR IJTIMOIYLASHUVINING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/P403 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psi-ik.uz.) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Elov Ziyodullo Sattorovich**

psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Umarov Baxriddin Mengboyevich**

psixologiya fanlari doktori, professor

**Qodirov Obid Safarovich,**

psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD03/30.12.2021.P.26.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_\_\_\_» kuni soat\_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32; faks (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu\_kengash@edu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**F.A. Akramova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc),  
professor

**N.B. Atabaeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, psixologiya fanlari doktori  
(DSc), professor

**Z.T. Nishanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
psixologiya fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda deviant xulq-atvor, uning shakllanishida yosh ko'rsatkichlari va motivlari, bunday hulq ko'rinishi sifatida o'smirlik yosh davridagi jinoyatchilikni oldini olish hamda insonlar xavfsiz yashashlarini ta'minlash masalalariga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, «... jahonda qayd etiladigan deviant hulq-atvorning aksariyat qismi o'smirlik yosh davriga to'g'ri kelishi dinamik harakterga hosligi bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farqlanishi kuzatilgan...»<sup>1</sup>. 2019-yil Amerika psixologlari assotsiatsiyasi (APA)ning ilmiy-amaliy konferensiyasi deviant xulq va yoshlar mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, ma'ruzachi M.J.Sigalning fikricha, «iqtisodiy rivojlanishi sust, ijtimoiy islohotlar keng qamrovli kuchga ega bo'lmagan jamiyatda, yoshlar bilan bog'liq huquqbuzarliklar ko'p sodir bo'lishi kuzatiladi. Bunday jamiyatlarda qonuniylik va noqonuniylik, axloqiylik va axloqsizlik o'rtasidagi chegaralar juda kichikdir»<sup>2</sup>. Bu borada deviant xulq-atvorli o'smirlarning jamiyatga integratsiyasini ta'minlash, ularning shahs sifatida shakllanishlariga psixologik ko'mak berish, ular ijtimoiylashuvi samarasini ta'minlaydigan psixologik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida o'smir deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlari muammosini ilmiy jihatdan tadqiq etish bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor berilib, voyaga yetmagan o'smirlar orasida xulq og'ishini oldini olish, ular xulq-atvorida namoyon bo'layotgan turli salbiy illatlarning psixologik sabablarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, oilaviy tarbiya uslubining voyaga yetmaganlar xulq-atvoriga ta'siri, shaxsda xulq og'ishini keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillarni erta psixodiagnostika qilish orqali korreksiyalashni amalga oshirish, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, ta'lim-tarbiya jarayonidagi turli ko'rinishdagi ziddiyatlar natijasida xulq og'ishining yuzaga kelishi, ijtimoiylashuv maskanlarida shaxsga nisbatan e'tibor, mehr va iliq tuyg'ularning tanqisligi, ularda qahr, g'azab ustuvorligiga olib keluvchi omillarni aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqot ishlariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda o'smirlarning zararli odatlarga berilishini oldini olish, ularni ma'naviy rivojlanishi hamda turli ta'sirlardan himoya qilishning zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Inson qadrini yuksaltirish orqali tegishli yo'nalishlar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, deviant hulqli shaxslarning ijtimoiy va xalqaro e'tirof etilgan boshqa huquqlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga reintegratsiyasiga ko'maklashishning samarali mexanizmlarini joriy etish, ushbu yo'nalishda davlat va jamiyat institutlarining birgalikdagi faoliyatini yo'lga qo'yish»<sup>3</sup> kabi muhim vazifalar berilganligi jamiyatimiz a'zolari bo'lgan o'smirlik yosh davridagi deviant hulqli o'smirlarni

<sup>1</sup> [https://studme.org/120215/psihologiya/problema\\_podrostkovyh\\_deviatsiy#google\\_vignette](https://studme.org/120215/psihologiya/problema_podrostkovyh_deviatsiy#google_vignette)

<sup>2</sup> American Psychological Association. (2019). Publication Manual of the American Psychological Association (6th ed.). Washington, DC: American Psychological Association.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son

ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlarini ilmiy-amaliy o'rganishga zarur asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida» Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-sonli «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-avgustdagi 490-son «Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish amaliyotida mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiy-psixologik moslashuvi muammosining zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish psixologiyaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O'zbek olimlaridan lar

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari olimlaridan A.G.Ambrumova, A.V.Boeva, D.S.Isayeva, Y.G.Kasperovich, I.A.Kudryavsev, M.M.Kochenov, A.E.Lichko, I.I.Mamaychuk, A.M.Sisoyeva, F.S.Safuanov, A.A.Frolova, M.Y.Fenomenov, I.V.Vachkov va boshqalar tomonidan o'smir yoshdagi o'quvchilarda xulqi og'ishganlik va addektiv xulq shakllari borasidagi tadqiqotlar keng qamrovli o'rganilgan.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston psixolog olimlaridan Y.M.Asadov, S.Yu.Ahrorov, M.X.Axmedova, Z.R.Ibodullayev, K.Ya.Baxronova, Z.F.Kamaletdinova, N.G.Kamilova, Sh.Mustafaeva, G'.A.Normurodov,

F.P.Rajabova, T.G.Suleymanova, G.K.To'laganova, B.M.Umarov, E.Sh.Usmanov, A.Sh.Urinov, Z.S.Elov, E.J.Nurimbetova, B.M.Umarov, G'.B.Shoumarov, U.D.Qodirov, O.S.Qodirov, E.A.Quljanov va boshqalar tomonidan voyaga yetmaganlarning delikvent va deviant xulq shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga oid ilmiy izlanishlarni amalga oshirishgan. Lekin aynan deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiy-psixologik moslashuvi masalasi alohida ilmiy tadqiqot predmeti sifatida tadqiq qilinmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.G.Ambrumova, I.K.Bashkatov, A.V.Boeva, L.I.Bojovich, G.G.Bochkareva, N.S.Gileva, E.V.Demidova, O.B.Dolginova, E.V.Zmanovskaya, A.V.Zavalyak, K.E.Igoshev, P.A.Kabanov, Y.G.Kasperovich, S.V.Knijnikova, V.T.Kondrashenko, I.A.Kudryavsev, M.M.Kochenov, N.D.Levitov, A.E.Lichko, I.I.Mamaychuk, D.S.Isayeva, O.A.Ofèrkina, A.N.Pastushenya, E.L.Radnaeva, F.Rays, I.V.Ramanova, A.A.Rean, Ye.M.Rodionova, N.A.Sapronova, A.M.Sisoyeva, F.S.Safuanov, A.A.Frolova, M.Y.Fenomenov, V.Chesnokova va boshqalar tomonidan deviantlikka moyillik, deviant xulq shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga oid masalalar ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Xorijiy psixolog olimlaridan A.Bandura, H.J.Buhl, B.S.Gekeler, E.H.Erikson, E. Fromm, G. Kayzer, J.Marcia, A.Merari, M. Mid, B.A.Mirenskiy, G.Samaranayake, T.A.Strentz, D.Richardson, J.Turek, B.Xolist, G.Shnyder, A.S.Waterman va boshqalar tomonidan o'smirlardagi deviant xulq-atvor va uning turli jihatlari ilmiy tadqiq etilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Psixologiya tarixini o'rganish, umumiy psixologiya mazmunini o'zlashtirish, shaxs psixologiyasini tasniflash, psixofiziologik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, tibbiy va kasb psixologiyasi qonuniyatlarini o'rganish, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya hamda yosh davrlari va pedagogik psixologiyaning konsptual asoslarini tadqiq qilish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2021-2024-y.y.).

**Tadqiqotning maqsadi** deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlari tadqiq qilish asosida zarur taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o'smirlarda deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy, shaxsiy, fiziologik va oilaviy omillarni asoslash;

deviant xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonlariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

deviant xulq-atvorning o'smirlarning ijtimoiy-psixologik moslashuviga ta'sir qiluvchi komponentlarini aniqlash;

o'smirlarda deviant xulq-atvorni korreksiyalash asosida ularning ijtimoiylashuv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan psixotexnikalar kombinatsiyasini qo'llash.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlari belgilangan bo'lib, Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga qabul qilingan 310 nafar (170 nafar qizlar, 160 nafar yigitlar) deviant xulq-atvorli o'smirlar jalb qilingan.

**Tadqiqotning predmetini** deviant xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiylashuv mexanizmlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ekspert baholash, suhbat, kuzatish, kontent analiz, hujjatli manbaalar tahlili, so'rov usullaridan foydalanildi. Muammoni empirik jihatdan o'rganishda K.Rodgers va R.Daymondning «Ijtimoiy-psixologik moslashuv diagnostikasi» usuli, A.V.Karpovning «Shaxsdagi refleksiya darajalarini o'rganish» metodikasi, D.Lyusinning «Emotsional intellekt» so'rovnomasi, Ye.Shaferning «Ota-onalar xulq-atvori o'smirlar nazarida» test-so'rovnomasi, hammualliflikdagi «O'smirlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar» ijtimoiy-psixologik so'rovnomasi -IPSdan (Z.S.Elov va Sh.R.Narziyeva) foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistik tahlil usullaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsienti, faktorli tahlil (SPSS-27 va Excel dasturi asosida) orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

deviant xulq-atvorli o'smirlarda yo'nalganligi va xulq-atvori ifodasi har doim ularning turmush tarzi, ijtimoiy muhit va tarbiyalanganlik darajasi hamda hayot yo'llari bilan o'zaro integratsiyasi tufayli differensial farqlarning mavjudligi asoslangan;

deviant xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiylashuvida o'zini va boshqalarni qabul qilish, ijobiy hissiyot, internallik, hukmronlikka intilish kabi xususiyatlarining ustivorligi tufayli deviant xulq motivlariga psixokorreksion ta'sir etish usullari asoslangan;

deviant xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiylashuvi emotsional intellekt va refleksivlik negizida namoyon bo'lishiga ko'ra barqaror ijtimoiy-psixologik munosabatlar tizimini shaxslararo, ichki, emotsional intellekt, hissiyotlarni tushunish va uni boshqarish, his-tuyg'ularning ifodali nazorati, vaziyatli, retrospektiv, perspektiv refleksiya xususiyatlarini shakllanganligiga bog'liq ravishda anglashning muhimligi tufayli emotsional intellekt va refleksivlik xususiyatlarini uyg'un holda rivojlantirish orqali ularning ijtimoiy-psixologik moslashishi jarayonini takomillashtirish mumkinligi isbotlangan;

deviant xulq-atvorli o'smirlar shaxsiga xos bo'lgan individual-psixologik xususiyatlar bilan nosog'lom ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro moslik va ularning bir-birini qo'llab-quvvatlashi deviant xulq-atvorning kelib chiqishiga sabab bo'lishi tufayli ijtimoiy, shaxsiy, oilaviy, fiziologik omillarga nasbatan faol ijobiy munosabatni rivojlantirish orqali ijtimoiylashuv moslashishi jarayonini samarali ta'minlash mumkinligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o'smirlarda deviant xulq-atvor kelib chiqishi va namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik komponentlari aniqlangan;

o'smirlardagi deviant xulq-atvorni aniqlashning metodik apparati takomillashtirilib, ijtimoiy-psixologik moslashuviga bevosita ta'sir qiluvchi omillar tizimini aniqlashda amaliyotga kiritilgan;

o'smirlarda deviant xulq-atvorni oldini olishga qaratilgan psixokorreksion trening mashg'ulotlari ishlab chiqilib, aprobatsiya qilingan;

o'smirlarda deviant xulq-atvor korreksiyalash bo'yicha zarur takliflar ishlab chiqilib, amaliyotga kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Muammoning aniq qo'yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma'lumotlarning reprezentativligi, empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Ms Excel», «SPSS 26.0» dasturlari asosida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotda qo'lga kiritilgan natijalarining ilmiy ahamiyati umumta'lim maktablari o'smir o'quvchilari faoliyatida namoyon bo'luvchi deviant xulq-atvorni bartaraf etishga qaratilgan nazariy va metodologik jihatdan yangi ma'lumotlar bilan boyitilganligi va olingan natijalar mazkur tadqiqotning nazariy asoslarini takomillashuviga, deviant xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida qo'llash mumkin bo'lishining nazariy asosi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalardan voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari psixologlari, voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog, profilaktika inspektorlari, maktab amaliyotchi psixologlari, ta'lim muassasalari o'qituvchilari va ota-onalar, keng foydalanishi mumkinligi, ilmiy asoslangan psixologik xizmat tizimini tashkil etishda «Deviant xulq-atvor psixologiyasi», «Umumiy psixodiagnostika», «Ijtimoiy psixologiya», «Ontogenez psixologiyasi» «Psixologik maslahat va psikorrektsiya» fanlaridan o'quv adabiyotlarini tayyorlashda, psixologik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** «Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlari» mavzusida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

deviant xulq-atvorli o'smirlarda yo'nalganligi va xulq-atvori ifodasi har doim ularning turmush tarzi, ijtimoiy muhit va tarbiyalanganlik darajasi hamda hayot yo'llari bilan o'zaro integratsiyasi tufayli differensial farqlarning mavjudligi asoslanganligi haqida ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markaz qoshidagi psixologlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi o'quv rejasining "Ijtimoiy psixologiya" va

“Deviantologiya” modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 16-noyabrdagi PM-34-a son ma’lumotnomasi). Natijada o‘smirlarda deviant xulq-atvor kelib chiqishi va namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik komponentlari aniqlangan;

deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijtimoiylashuvida o‘zini va boshqalarni qabul qilish, ijobiy hissiyot, internallik, hukmronlikka intilish kabi xususiyatlarining ustivorligi tufayli deviant xulq motivlariga psixokorreksion ta’sir etish usullari asoslanganligi haqida ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markaz qoshidagi psixologlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi o‘quv rejasining “Ijtimoiy psixologiya” va “Deviantologiya” modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 16-noyabrdagi PM-34-a son ma’lumotnomasi). Natijada o‘smirlardagi deviant xulq-atvorni tadqiq qilishning metodik apparatini takomillashtirish orqali ijtimoiy-psixologik moslashuviga bevosita ta’sir qiluvchi omillar tizimini aniqlash va empirik tahlillar olib borish asoslangan;

deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijtimoiylashuvi emotsional intellect va reflektivlik negizida namoyon bo‘lishiga ko‘ra barqaror ijtimoiy-psixologik munosabatlar tizimini shaxslararo, ichki, emotsional intellect, hissiyotlarni tushunish va uni boshqarish, his-tuyg‘ularning ifodali nazorati vaziyatli, retrospektiv, perspektiv refleksiya xususiyatlarini shakllanganligiga bog‘liq ravishda anglashning muhimligi tufayli emotsional intellect va reflektivlik xususiyatlarini uyg‘un holda rivojlantirish orqali ularning ijtimoiy-psixologik moslashishi jarayonini takomillashtirish mumkinligi isbotlangan yangilik markaz qoshidagi psixologlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi o‘quv rejasining “Ijtimoiy psixologiya” va “Deviantologiya” modullariga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 16-noyabrdagi PM-34-a son ma’lumotnomasi). Natijada o‘smirlarda deviant xulq-atvorni oldini olishga qaratilgan psixokorreksion trening mashg‘ulotlari yordamida psixoprofilaktik chora tadbirlar ishlab chiqilgan va ularning ijtimoiy-psixologik moslashuvi tizimlashtirilgan;

deviant xulq-atvorli o‘smirlar shaxsiga xos bo‘lgan individual-psixologik xususiyatlar bilan nosog‘lom ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro moslik va ularning bir-birini qo‘llab-quvvatlashi deviant xulq-atvorning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi tufayli ijtimoiy, shaxsiy, oilaviy, fiziologik omillarga nisbatan faol ijobiy munosabatni rivojlantirish orqali ijtimoiylashuv moslashishi jarayonini samarali ta’minlash mumkinligi isbotlangan yangilik markaz qoshidagi psixologlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi o‘quv rejasining “Ijtimoiy psixologiya” va “Deviantologiya” modullariga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 16-noyabrdagi PM-34-a son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘smirlarda deviant xulq-atvor korreksiyalash bo‘yicha psixotexnikalarni joriy etishga doir zarur takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, shundan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 133 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, zarurati, maqsad va vazifalar belgilangan, metodlar, ob'ekt va predmet ko'rsatilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda tadbiiq etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Deviant xulq-atvor va ijtimoiylashuv muammosini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida deviant xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiy-psixologik moslashish muammosi va uning turli sabablari va xususiyatlari muammosiga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish va tadqiqot maqsadiga mos ravishda tizimlashtirish maqsadida, xorijiy, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari va O'zbekiston tadqiqotchilari ishlarining nazariy tahlili bayon qilingan. Umuman deviant xulq atvor, ijtimoiy-psixologik moslashish tushunchalarining ijtimoiy-psixologik mohiyati va uni tadqiq qilish bilan bog'liq ilmiy yondashuvlarning ilmiy-nazariy va metodolik asoslari bayon qilingan.

Mazkur yo'nalishga yaqin tadqiqot ishlarini yurtimiz psixolog olimlaridan Y.M.Asadov, O.U.Avlayev, D.Sh.Baratova, Sh.A.Isroilov, N.G.Komilova, Z.S.Elov, E.M.Muxtorov, G'.A.Normurodov, L.Y.Olimov, B.M.Umarov, U.D.Qodirov, O.S.Qodirov, G.Q.To'laganova, D.Sharipova, G.Xudoyarova, G.T.Yadgorovalar o'z ilmiy izlanishlarida deviant xulqli o'smirlar xulq-atvoriga xos salbiy illatlarning oldini olish, unga qarshi kurashish, ularni qayta tarbiyalashning psixologik, pedagogik hamda huquqiy masalalarini o'rgangan bo'lsalar, faylasuf olimlardan E.Yusupov, X.Shayxova, Q.Nazarov, N.Komilov, M.Xolmatova, M.Imomnazarovlar shaxs tarbiyasida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalarini, sotsiolog M.Bekmurodov shaxs axloqini shakllantirishda hamda axloqiy buzilishlarni oldini olishda jamoatchilik fikrining tutgan o'rni masalalarini, huquqshunoslar O.Oqilov, A.Qulahmetov, M.Usmonaliyev, R.Turdiyevlar jinoyatchilik, jumladan o'smir lar jinoyatchiligi masalalarini tadqiq qilishgan

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.I.Volkov, A.G.Gresov, M.I.Enikeev, V.F.Pirojkov, Y.D.Zmanovskaya, S.A.Belicheva, Y.N.Ivanov, N.Y.Sinyagina, Y.I.Yurichka, R.V.Ovcharova, L.M.Semenyuk, I.V.Vachkov, R.Kochyuna, A.V.Boeva, D.I.Shustov, N.V.Vereshagina,

A.R.Korshunovalar deviant xulqli o'smirlarga ijtimoiy - psixologik yordam ko'rsatish va ularning harakatlarini korreksiya qilish bilan bog'liq masalalarni tadqiqotchilarning asarlarida uchratish mumkin. A.I.Donsov Y.L.Arzumanov, A.D.Glotochkin, M.V.Lvova, A.E.Lichko, Y.A.Kleyberg, A.A.Rean, R.V.Fomina, A.V.Shuvalov va boshqalar tomonidan o'smir yoshdagi o'quvchilarda xulqi og'ishganlik va addektiv xulq shakllari borasidagi tadqiqotlar keng qamrovli o'rganilgan bo'lib, lekin aynan deviant xulq-atvorli o'smirlarda suitsidal holatlarni keltirib chiqaradigan motivatsiyalar ilmiy muammo sifatida o'rganilmagan.

Xorij tadqiqotchilardan Dj.Kelli, Ch.Lomborzo, E.Krechmer, U.Sheldonlarning antropotsentrik nazariyasi, Z.Freyd, K.Yung, E.Erikson kabi olimlarning psixoanalitik nazariyasi, E.Dyurkgeym, R.Mertonlarning axloqsizlik nazariyasi, S.Miller, E.Saterlandlarning madaniy-mantiqiy rivojlanish nazariyasi, A.Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi, G.Bekkerning stigmatik nazariyasi, A.Turning nizolar tipologiyasi nazariyasi, N.Smelzeraning xulq-atvor qoidalari haqidagi nazariyasi, S.Linga hamda U.Xarre va boshqalarning deviansiya masalasini tadqiq etishgan bo'lsa-da, aynan deviant xulq-atvorli o'smirlarda suitsidga moyillik motivatsiyasini aniqlash va korresiyalashning psixologik mexanizmlari ustuvor tadqiqot yo'nalishi sifatida qaralmagan.

Dissertatsiyaning **«Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining empirik asoslari»** deb nomlangan ikkinchi bobi, o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahlili va korrelyatsion bog'lanishlar o'z aksini topgan. Jumladan, deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiy-psixologik moslashuvini tadqiq qiluvchi metodlarning o'zaro korrelyatsion bog'liqliklari haqida o'tkazilgan empirik tadqiqotlar natijalari bayon qilingan.

K.Rodgers va R.Daymondning «Ijtimoiy-psixologik moslashuv diagnostikasi» usuli va uning tadqiqot madsadiga mosligi deviant xulq-atvorli o'smirlardagi moslashuvchanlik yo'nalishlari izchillikni anglatadigan ijtimoiy muhit va shaxsiy tendensiyalarni ifodalaydigan hamda o'zini-o'zi va ijtimoiy muhitni real baholashga imkoniyat yaratuvchi shaxsiy xususiyatlar, shaxsiy faoliyat, moslashuvchanlik, ijtimoiy qobiliyatlarni aniqlashda foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida metodika mohiyati va unda belgilangan me'yorlarga tayanib, ijtimoiy psixologik moslashuvchanlikning quyidagi 6 ta ajralmas ko'rsatkichlar bilan ifodalanishini aniqladik: 1. «Moslashuvchanlik»; 2. «O'zini qabul qilish»; 3. «Boshqalarni qabul qilish»; 4. «Ijobiy hissiyotlar»; 5. «Ichki his-tuyg'ular» («Ichkarilik»); 6. «Hukmronlikka intilish».

A.V.Karpovning «Shaxsdagi refleksiya darajalarini o'rganish» metodikasi, D.Lyusinning «Emotsional intellekt» so'rovnomasi, Shaferning «Ota-onalar xulq-atvori o'smirlar nazarida» test-so'rovnomasi hamda hammualliflikda ishlab chiqilgan «O'smirlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar so'rovnomasi» ijtimoiy-psixologik so'rovnomasidan (Z.S.Elov va Sh.R.Narziyeva) va uning tadqiqot madsadiga mosligi ham alohida mezonlar asosida tahlil qilindi.

**1-jadval**

**K.Rodgers va R.Daymondning «Ijtimoiy-psixologik moslashuv diagnostikasi» usuli bo'yicha olingan natijalar**

	Omillar	Obyekt (n=330)	O'rtacha qiymat	Statistik farq	
			M	t	p
	Moslashuv	Qizlar (n=170)	46,71	-2,4	0,05
		Yigitlar (n=160)	54,14		
	O'zini-o'zi qabul qilish	Qizlar	12,21	-2,1	0,05
		Yigitlar	16,54		
	Boshqalarni qabul qilish	Qizlar	16,96	-2,3	0,05
		Yigitlar	13,32		
	Hissiy qulaylik	Qizlar	16,20	-2,5	0,05
		Yigitlar	12,36		
	Ichki nazorat	Qizlar	28,42	-3,2	0,05
		Yigitlar	19,52		
	Hukmronlik istagi	Qizlar	8,36	-1,8	0,01
		Yigitlar	6,01		
	Eskapizm (muammolardan qochish)	Qizlar	17,49	-2,3	0,05
		Yigitlar	11,23		

Izoh: \*\*p≤0,01; \*\*\*p≤0,001

K.Rodgers va R.Daymondning «Ijtimoiy-psixologik moslashuv diagnostikasi» metodikasi orqali olingan natijalar tahliliga o'tadigan bo'lsak, «moslashuv» ( $t=-2,4$ ;  $p\leq 0,05$ ), «o'zini-o'zi qabul qilish» ( $t=-2,1$ ;  $p\leq 0,05$ ), «boshqalarni qabul qilish» ( $t=-2,3$ ;  $p\leq 0,05$ ), «hissiy qulaylik» ( $t=-2,5$ ;  $p\leq 0,05$ ), «ichki nazorat» ( $t=-3,2$ ;  $p\leq 0,05$ ), hamda «eskapizm (muammolardan qochish)» ( $t=-2,3$ ;  $p\leq 0,05$ ) omillarida ahamiyatli farqlar kuzatildi. «Hukmronlik istagi» ( $t=-1,1$ ;  $p\leq 0,01$ ) omilida esa ishonchli farqlar kuzatilmadi.

Retrospektiv refleksiya mezonida ham qizlarda (59,12 %,  $m=1,96$ ), yigitlarda (49,98 %,  $m=1,76$ ) quyi qiymat katta foizda chiqqanligi har ikkala jins deviant xulq-atvorli o'smirlarda o'zini-o'zi tahlil qilish, harakatlarini tahlil qila olish, o'tmishi va ayni paytdagi o'zi bilan bog'liq bo'lan voqea va hodisalarni baholashga moyillikning

pastligi, ularning o‘tmishida sodir bo‘gan hodisalarni tahlil qilish va bu jarayonning ishtirokchisi ekanligini inbatga olib sodir bo‘lgan voqealar tafsilotini, qilgan xatolarini tushunishi kabi jihatlar past darajada rivojlanganligini ko‘rsatdi ( $t=-1,3$ ,  $p<0,01$ ).

Perspektiv refleksiya omilida ham afsuski, har ikkala jins vakillarida biz tahmin qilgandan ham juda past ko‘rsatkichlarga erishildi. Qizlarda (71,24 %,  $m=2,01$ ), yigitlarda (65,27 %,  $m=1,56$ ) ham kelgusi faoliyatni (shaxsiy, kasbiy), xulq-atvorni tahlil qilish (jamiyatning ijtimoiy normalariga muvofiqlashtirish), faoliyat natijalari bashoratlash, o‘z xatti-harakatlari tafsilotlarini puxta rejalashtirish kabi dominant xususiyatlarni quyi darajada shakllanganligi bilan izohlashimiz mumkin bo‘ladi ( $t=-1,4$ ,  $p<0,01$ ), 2-jadvalga qarang.

**2-jadval**

**Deviant xulq-atvorli o‘smirlarda refleksiya darajalari namoyon bo‘lishining gender-qiyosiy ko‘rsatkichlari (A.V.Karpov usuli bo‘yicha)**

	Refleksiya xususiyatlari	Refleksiya darajalari	Qizlar (n=170)		Yigitlar (n=160)		Statistik farq	
			M	M <sub>1</sub> (umumiy o‘rtacha qiymat)	M	M <sub>2</sub> (umumiy o‘rtacha qiymat)	t	p
Vaziyatli refleksiya	Quyi (0-3 b)	2,03	4,95	4,95	2,01	5,02	-1,1	0,01
	O‘rta (4-7 b)	4,78			4,64			
	Yuqori (8-10 b)	8,02			8,41			
Retrospektiv refleksiya	Quyi (0-3 b)	1,96	4,99	4,99	1,76	5,12	-1,3	0,01
	O‘rta (4-7 b)	4,89			5,12			
	Yuqori (8-10 b)	8,12			8,47			
Perspektiv refleksiya	Quyi (0-3 b)	2,01	5,99	5,99	1,56	5,03	-1,4	0,01
	O‘rta (4-7 b)	5,29			4,78			
	Yuqori (8-10 b)	8,97			8,75			

Izoh: \*\* $p\leq 0,01$ ; \*\*\* $p\leq 0,001$

E.D.Lyusinning «Emotsional intellekt» metodikasi orqali olingan natijalar tahliliga o‘tadigan bo‘lsak, «shaxslararo emotsional intellekt» ( $t=-2,1$ ;  $p\leq 0,05$ ), «emotsiyalarni boshqarish» ( $t=-2,2$ ;  $p\leq 0,05$ ) hamda «o‘zini emotsiyasini tushunish» ( $t=-2,1$ ;  $p\leq 0,05$ ) omillarida ahamiyatli farqlar kuzatildi. «ichki emotsional intellekt» ( $t=-1,2$ ;  $p\leq 0,01$ ), «emotsiyalarni tushunish» ( $t=-1,2$ ;  $p\leq 0,01$ ), «boshqalarning

emotsiyasini tushunish» ( $t=-0,7$ ;  $p\leq 0,01$ ), «boshqalarning emotsiyasini boshqarish» ( $t=-0,5$ ;  $p\leq 0,01$ ), «o‘zini emotsiyasini boshqarish» ( $t=-1,3$ ;  $p\leq 0,01$ ), «tashqi ta’sirlardan o‘z emotsiyasi nazorati» ( $t=-0,6$ ;  $p\leq 0,01$ ) omillarida esa ishonchli farqlar kuzatilmadi, 3-jadvalga qarang.

### 3-jadval

#### Deviant xulq-atvorli o‘smirlar emotsional intellektining qiyosiy ko‘rsatkichlari tahlili (E.D.Lyusinning «Emotsional intellekt» so‘rovnomasi bo‘yicha).

	Omillar	umumiy o‘rtacha qiymat		t	p
		Qizlar M <sub>1</sub> (n=170)	Yigitlar M <sub>2</sub> (n=160)		
1	Shaxslararo emotsional intellekt	19,24	21,48	-2,1	0,05
2	Ichki emotsional intellekt	14,36	15,21	-1,2	0,01
3	Emotsiyalarni tushunish	14,11	14,03	-0,6	0,01
4	Emotsiyalarni boshqarish	10,12	12,01	-2,1	0,01
5	Boshqalarning emotsiyasini tushunish	5,62	5,17	-0,7	0,01
6	Boshqalarning emotsiyasini boshqarish	24,52	24,31	-0,5	0,01
7	O‘zini emotsiyasini tushunish	30,28	32,87	-2,2	0,05
8	O‘zini emotsiyasini boshqarish	31,29	32,34	-1,3	0,01
9	Tashqi ta’sirlardan o‘z emotsiyasi nazorati	32,13	32,39	-0,6	0,01

Izoh: \*\* $p\leq 0,01$ ; \*\*\* $p\leq 0,001$

«Ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma» orqali olingan natijalar tahliliga o‘tadigan bo‘lsak, «oilada farzandlar tarbiyasi bo‘yicha bilimlarining yetarli emasligi» ( $t=-2,1$ ;  $p\leq 0,05$ ), «oilaviy tarbiyada o‘smirlarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olmaslik» ( $t=-2,3$ ;  $p\leq 0,05$ ), «ota-onalarning jamiyat me’yorlariga zid bo‘lgan xulqqa ega bo‘lishliklari» ( $t=-2,3$ ;  $p\leq 0,05$ ), «boshqa omillar (tashqi axborot manbaalarning ta’siri, tengdoshlar va atrofdagilarning salbiy ta’siri va boshqa omillar)» ( $t=-2,2$ ;  $p\leq 0,05$ ) omillarida ahamiyatli farqlar kuzatildi.

## 4-jadval

**O‘smirlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar bo‘yicha olingan natijalar (Ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma asosida)**

	O‘smirlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqish omillari	O‘rtacha qiymat		Statistik farq	
		Qizlar (M <sub>1</sub> ) (n=170)	Yigitlar (M <sub>2</sub> ) (n=160)	t	p
	Farzandlar tarbiyasiga e’tiborining susayishi va ular faoliyatini nazorat qilmaslik	14,12	15,06	-1,1	0,01
	Oilada farzandlar tarbiyasi bo‘yicha bilimlarining yetarli emasligi	8,29	6,34	-2,1	0,05
	Oilaviy tarbiyada samarasiz, eskirgan usullardan foydalanish	6,23	5,48	-1,3	0,05
	Tarbiyada milliy qadriyatlarimiz namunalaridan foydalanmaslik	4,21	4,35	-0,5	0,01
	Oilaviy tarbiyada o‘smirlarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olmaslik	10,68	12,81	-2,3	0,05
	Ota-onalarning jamiyat me’yorlariga zid bo‘lgan xulqqa ega bo‘lishliklari	9,86	11,37	-2,3	0,05
	Moddiy-maishiy shart-sharoitining yetarli emasligi	11,70	12,84	-1,1	0,01
	Ota-onalarning uzoq muddat xorijda bo‘lishi	16,91	14,75	-1,9	0,01
	Oiladagi salbiy muhitning ta’siri (nizoli oila, ota-onaning ajrashishi, o‘gay ota yoki onaning salbiy munosabatlari)	8,72	9,54	-1,0	0,01
0	Boshqa omillar (tashqi axborot manbaalarning ta’siri, tengdoshlar va atrofdagilarning salbiy ta’siri va boshqa omillar)	9,28	7,46	-2,2	0,05

Izoh: \*\*p≤0,01; \*\*\*p≤0,001

«Oilaviy tarbiyada samarasiz, eskirgan usullardan foydalanish» (t=-1,3; p≤0,01), «farzandlar tarbiyasiga e’tiborining susayishi va ular faoliyatini nazorat qilmaslik» (t=-1,1; p≤0,01), «tarbiyada milliy qadriyatlarimiz namunalaridan foydalanmaslik» (t=-0,5; p≤0,01), «moddiy-maishiy shart-sharoitining yetarli emasligi» (t=-1,1; p≤0,01), «ota-onalarning uzoq muddat xorijda bo‘lishi» (t=-1,9; p≤0,01), «oiladagi salbiy muhitning ta’siri (nizoli oila, ota-onaning ajrashishi, o‘gay ota yoki onaning salbiy munosabatlari)» (t=-1,0; p≤0,01), omillarida esa ishonchli farqlar kuzatilmadi.

**Ijtimoiy-psixologik moslashuv omillari bilan emotsional intellekt omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar, (n=330)**

Omillar	Moslashuv	O'zini-o'zi qabul qilish	Boshqalarni qabul qilish	Hissiy qulaylik	Ichki nazorat	Hukmronlik istagi	Eskapizm (muammolardan qochish)
Shaxslararo emotsional intellekt	0,18	-0,23*	0,09	0,280	0,16	0,25	0,51*
Ichki emotsional intellekt	-0,12	-0,08	-0,59*	0,09	0,18	-0,23	0,24
Emotsiyalarni tushunish	0,09	0,28	-0,13	0,09	-0,07	0,02	0,52*
Emotsiyalarni boshqarish	0,08	0,07	0,14	0,17	-0,14	0,09	0,22
Boshqalarning emotsiyasini tushunish	-0,25*	-0,102	0,09	0,17	0,07	-0,05	0,18
Boshqalarning emotsiyasini boshqarish	0,02	-0,03	-0,16	0,14	-0,08	0,22	0,27
O'zini emotsiyasini tushunish	-0,24	-0,51*	0,02	0,11	0,25	-0,02	0,08
O'zini emotsiyasini boshqarish	0,07	-0,17	0,17	0,19	0,04	0,21	-0,08
Tashqi ta'sirlardan o'z emotsiyasi nazorati	0,58*	0,61**	0,08	0,07	0,14	-0,06	-0,26

Izoh: \*\*p≤0,01; \*\*\*p≤0,001

Eskapizm (muammolardan qochish) omili shuningdek emotsiyalarni tushunish (0,52\*) omili bilan bog'liqlikning mavjudligi yana o'sha salbiy natijalarga olib keladigan holat sifatida baholashga olib keldi. Devianr xulq-atvorli o'smirlarda aynan o'z toifasidagilar bilangina yaqin munosabat o'rnatganliklari bois sheriklarining his-tuyg'ularinigina tushunishga moyilligi yuqori ekanligini ko'rsatdi. Oilada shaxslararo munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligini asosiy sabab deb qaraydigan bo'lsak, bundan kerakli xulosa qilishimiz lozimligini ko'rsatib turibdi.

Haqiqatdan ham hattoki o'smir-qizlarda ham (voyaga yetmaganligiga qaramasdan) tungi klublarda kechgacha qolib, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishi, o'zga jins vakillari bilan jinsiy munosabatda bo'lishi kabi jiddiy salbiy harakatlarga tobellikka (addiksiyaga) olib kelishi, kerak bo'lsa odatlanib qolishigacha bo'lgan boshqichga yetib borshadi. Masalaning bunday jiddiy tus olishiga eng asosiy sabab sifatida oilaviy munosabatlardagi nizoli holatlar, ajrimlar,

ota-onasining uzoq muddat birga yashamayotganligi (xususan xorijga chiqib ketganliklari) kabilarni kiritishimiz mumkin. Albatta, ota-onalar farzand tarbiyasida aynan ushbu aloqadorlikni inobatga olishlari zarurdan zarur hisoblanadi.

Eskapizm (muammolardan qochish) omili shuningdek emotsiyalarni tushunish ( $t=0,52$ ;  $p\leq 0,05$ ) omili bilan bog'liqlikning mavjudligi yana o'sha salbiy natijalarga olib keladigan holat sifatida baholashga olib keldi. Deviant xulq-atvorli o'smirlarda aynan o'z toifasidagilar bilangina yaqin munosabat o'rnatganliklari bois sheriklarining his-tuyg'ularinigina tushunishga moyilligi yuqori ekanligini ko'rsatdi. Oilada shaxslararo munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligini asosiy sabab deb qaraydigan bo'lsak, bundan kerakli xulosa qilishimiz lozimligini ko'rsatib turibdi.

Hissiy qulaylik omili bilan shaxslararo emotsional intellekt omili o'rtasida yuqori ijobiy bog'liqlikning kuzatilganligi (0,508) aslida ulardagi yashirin holda kechadigan psixik kechinma sifatida baholanadi. Deviant xulq-atvorli o'smirlarning ko'pchiligida oila a'zolari hamda yaqinlari tomonidan iliq munosabat o'rnatilmaganligi fonida ushbu xulq namoyon bo'lishini hisobga oladigan bo'lsak, ularda aynan yaqin insoniy munosabatlarga kirishish istagi ustunlik qilishini anglatadi. Afsuski, bunday o'smirlar bilan ular istaganidek munosabatning o'rnatilmaganligi sababli boshqa deviant xulqlilar bilan yaqinlashishiga va tabiiyki, ular bilan hissiy qulay sharoitning vujudga kelishiga yo'nalishiga, iltimoiy normalardan chetga chiqishlari uchun sharoit va imkoniyat yaratiladi. Bunday holat esa bola shaxsini ijtimoiylashuvi uchun mas'ul bo'lganlar (ota-ona, pedagog, psixolog, inspektor psixolog va boshqalar) aynan ular bilan ko'proq muloqot qilishlarini, ularga ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni yaratib berishlari zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot ishimizga jalb qilingan respondentlarning katta qismida boshqalarga bo'ysunishga nisbatan hukmronlik hissi ustunlik qilishiga guvoh bo'ldik. Bu omil boshqalarning emotsiyasini boshqarish omili bilan yuqori bog'liqlik namoyon qilganligi aslida salbiy holat sifatida baholanadi. O'zidan kuchsiz va xulqi og'ishga moyil bo'lganlarni osongina ortidan ergashtirishi va o'z qarashlariga tobe qilib olish imkoniyatlarini yanada ortishiga olib keladi. Buning oqibatida turli kriminal guruhlarning paydo bo'lishiga, sodda tilda aytganda "to'da", "ko'cha bezorilari" "ko'cha daydilari" va boshqa shunga o'xshash norasmiy guruhchalarga birlashishlari, deviant hatti-harakatlar, ayrim holatlarda esa jinoyatgacha olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu boisdan deviant xulqli va moyilligi bor o'smirlar bilan jiddiy suhbat o'tkazish, profilaktik tadbirlarni kuchaytirish lozimligini, foydali mehnat foliyatiga yo'naltirish ishlar ko'lamini yanada keng doirada tizimli ravishda olib borish zaruratini anglatadi.

Deviant xulq-atvorli o'smirlarda moslashuv omili bilan boshqalarning emotsiyasini tushunish omili o'rtasidagi salbiy korrelyatsiyaning (-0,25) mavjudligi eng katta muammolardan biri ekanligini qayd etish lozim. Haqiqatdan ham ularning yaqinlarining unga nisbatan qilayotgan munosabatlarining mazmunini to'g'ri baholay olmasiliklari, qilgan hatti-harakatlariga nisbatan qattiq tanbeh berishlari, yoki

dakkilarini o'ziga nisbatan noo'rin qo'llanildi deb baholashi oqibatida shaxslararo munosabatlarda turli nizoli holatlarga olib kelganligini ko'rishimiz mumkin.

## 6-jadval

### Deviant xulq-atvorli o'smirlarda ijtimoiy-psixologik moslashuv va refleksiya darajalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar

